

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



“TASDIQLAYMAN”

Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.

S.U. Xodjaniyazov

S. U. Xodjaniyazov 2025-yil

**TUPROQLAR GEOGRAFIYASI
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	500 000	- Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530 000	- Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530200	- Geografiya

Urganch – 2025

Mazkur o`quv dastur Urganch davlat universiteti Kengashining 2025-yil 25-avgust dagi 3-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O`quv ishlari bo`yicha prorektor:


S.U. Xodjaniyazov

O`quv-uslubiy boshqarma boshligi:


G.R. Matlatipov


Mazkur o`quv dastur "Tabiiy va qishloq xo`jaligi fanlari" fakulteti Kengashining 2025-yil 28.08 dagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan. (1-sonli bayonnoma).

Fakulteti dekani:


J.SH. Ruzimov

Mazkur o`quv dastur "Geografiya" kafedrasining 2025-yil 27.08 dagi yig`ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (1-sonli bayonnoma).

"Geografiya kafedrasi mudiri:


A.G. Abdullayev

Fan/modul kodi TG1206	O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tuproqlar geografiyasi	60	120	180
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga “Tuproqlar geografiyasi” fanning maqsad va vazifasi, tuproqlar tasnifi, turoqlarni o'rganish tarixi, tuproqlarning tarqalish qonuniyatlari, Yer resurslarini o'rganish va ulardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilish haqidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarga tuproq hosil qiluvchi tabiiy va antropogen omillar, ularning o'zaro bog'liqligi, tuproq hosil bo'lish jarayonlarini o'rganish metodlari, tuproq kesmasi, genetik gorizontlari, tuproqlarning gorizont va vertikal mintaqalar bo'yicha tarqalish qonuniyati, tuproqlarning ifloslanishi va ularni muhofaza qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha xulosalar chiqara olish bo'yicha malaka hosil qilishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Kirish. Tuproq haqida umumiy tushuncha. Tuproqlar geografiyasining fan sifatida shakllanishi</p> <p>Kirish. Fanning maqsad va vazifasi. Tuproq haqida umumiy tushuncha. Tuproq geografik obyekt ekanligi. Tuproqlar geografiyasining fan sifatida shakllanishi. Umumiy va xususiy tuproqlar geografiyasi.</p> <p>2-mavzu. Tuproqlarni tadqiq qilish tarixi</p> <p>Tuproq haqidagi dastlabki ma'lumotlar. O'rta asr sharq olimlarining tuproq haqidagi bilimlari. Yevropa va rus olimlarining tuproqshunoslikka qo'shgan hissalar. O'rta Osiyo va O'zbekistonda tuproqlarning tadqiq qilinishi.</p> <p>3-mavzu. Tuproq hosil qiluvchi tog' jinslar va omillar</p> <p>Tuproq hosil qiluvchi tog' jinslar. Tog' jinslarining nurash qobig'i, nurash jarayoni, turlari. Asosiy tuproq hosil qiluvchi jinslar. Tuproq hosil qiluvchi jarayonlar. Tuproqlarning fizik xossalari. Kimyoviy va biokimyoviy jinslar tuproq sifatida. Tuproq paydo bo'lishi, rivojlanishi va unumdorligini belgilovchi asosiy omillar. Tuproq – landshaftning ko'zgusi.</p> <p>4-mavzu. Tuproqlar klassifikatsiyasi</p> <p>Tuproqlarning nomenklaturasi, taksonomiyasi va diagnostikasi. Tuproqlar klassifikatsiyasi va prinsiplari. Tuproq klassifikatsiyasi bilan shug'ullangan</p>			

olimlar va ularning ishlari tahlili.

5-mavzu. Tuproq morfologiyasi

Tuproq morfologiyasi. Tuproq profili. Tuproqning genetik gorizonti. Tuproq va uning ayrim qatlamlarining qalinligi. Tuproqning tusi. Tuproq strukturasi (donadorligi) va mexanik tarkibi. Tuproq qo'shilmasi. Tuproq yangi yaralmasi. Tuproqlarning tadrijiy rivojlanishi (evolyusiyasi) va tuproq profilining takomillanishida har xil tabiiy va antropogen omillarning roli va ta'siri. Insonning iqtisodiy faoliyati natijasida hosil bo'lgan sun'iy tuproqlar.

6-mavzu. Tuproqning mineralogik va kimyoviy tarkibi. Tuproqdagi organik moddalar

Tuproq qoplami ko'p fazali tabiiy tuzilma. Tuproqning mineral qismi: birlamchi va ikkilamchi minerallar. Tuproqlarning kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari. Tuproqning kimyoviy tarkibi. Tuproqdagi organik moddalar. Tuproqning gumusli qatlami – gumosfera. Gumus hosil bo'lish nazariyasi.

7-mavzu. Tuproq eritmasi, havosi, unumdorligi

Tuproq eritmasi - tuproqning suyuq tarkibiy qismi. Tuproq xossalarining shakllanishida suvning ahamiyati. Tuproq havosi va unumdorligi. Tuproqlarning gazsimon komponenti. Tuproq paydo bo'lishida moddalarning yo'qolishi va to'planishi. Tuproqning biotik komponenti. Tuproqdagi makroorganizmlar va ularning roli. Tuproq bonitirovkasi.

8-mavzu. Tuproqlarning hududiy tarqalish qonuniyatlari

Tuproq qoplaminin tabaqalanish (differentsiatsiya) omillari. Har xil turdagi tuproqlarning tarqalish qonuniyatlari: gorizontal zonallik, vertikal zonallik (balandlik mintaqalanishi), fatsiallik (provinsiallik), tuproqlarning o'xshash topografik qatorlari, intrazonallik.

9-mavzu. Tuproq geografik rayonlashtirish

Tekislikda va tog'li o'lkalarda tuproqlarini shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ularning tavsifi. Tuproqlarni rayonlashtirish. Tuproq geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi. Dunyoning tuproq bioiqlim mintaqalari.

10-mavzu. Qutbiy (sovuq), boreal (mo'tadil-sovuq) va subboreal tuproq bioiqlim mintaqalari, Subtropik va tropik tuproq bioiqlim mintaqalari

Tuproq qoplaminin kenglik bo'yicha tuproq-bioiqlimiy mintaqalarga ajartilishi. Qutbiy (sovuq), boreal (mo'tadil-sovuq) va subboreal tuproq bioiqlim mintaqalari tuproqlari. Subtropik sernam-o'rmon, subtropik kserofit-o'rmon va buta-dasht subtropik chala cho'l va cho'llar oblastlari tuproqlari. Tropik mintaqada tuproqlarini hosil qiluvchi asosiy jarayonlar. Tropik nam-o'rmon, tropik savannalar va kserofit-o'rmon, tropik chala cho'l va cho'l oblastlari tuproqlari.

11-mavzu. Tog' (balandlik mintaqasi) va qayir tuproqlari

Tog'li hududlarda tuproq hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Tog'li hudud tuproqlari. Cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqasi tuproqlari. Tog'

tuproqlaridan foydalanish. Qayir tuproqlari va ulardan foydalanish.

12-mavzu O'zbekiston tuproqlari nomenklaturasi va tahlili

O'zbekiston tuproqlari qisqacha tahlili, respublikada tuproqshunoslikka oid GAT ga asoslangan ishlar, nomenklaturasi, kartaga olish, tuproq kartalari tahlili

13-mavzu. Tuproq qoplami raqamli kartaga olish obyekt sifatida

Tuproq kartalarini loyihalash bosqichlari, karta dasturini tayyorlash, ma'lumotlarni to'plash, tahrirlash, turli xil tuproq kartalarini mazmuni, matematik asosi, shartli belgilari, dizayni

14-mavzu. Tuproqshunoslik axborot tizimlari, ma'lumotlar bazasi, huquqiy asoslari

Tuproqshunoslikka oid axborot tizimlari va texnologiyalari, qishloq xo'jaligida yer resurslari meliorativ holatini boshqarish bo'yicha huquqiy asoslar, ma'lumotlar bazasi va ularni boshqarishni tashkil qilish

15-mavzu. Tuproqlarning ifloslanishi va ularni muhofaza qilish

Tuproq eroziyasi. sho'rlanishi, Tuproq buzilishi va ifloslanishining sabablari va manbalari. Tuproqqa ta'sir etish natijasida yuzaga keladigan salbiy oqibatlar. Tuproqlarni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar. Tuproqlar unumdorligini saqlash, muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tuproqlar geografiyasining geografik fanlar tizimida tutgan o'rni.
2. Tuproqlar geografiyasi rivojlanish tarixini tahlil qilish
3. Tuproq kesmasini chizish va tahlil qilish.
4. O'zbekiston tuproq xaritasini ishlash
5. O'zbekiston tuproq xaritasini tahlil qilish
6. Dunyo tuproqlari xaritasini ishlash.
7. Dunyo tuproqlari xaritasi asosida tuproqlarning tarqalish qonuniyatlarini tahlil qilish
8. Tuproqlarining meliorativ holatini tahlil qilish
9. Tuproqlarni sho'rlanishga olib keluvchi tabiiy va antropogen omillarni aniqlash.
10. Tuproqlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.
11. Belgilangan hududdan tuproq namunalari olish va tahlil qilish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Amaliy dars topshiriqlariga tayyorgarlik ko'rish.
2. Tuproqning kimyoviy ifloslanishi.
3. Tuproqlarni tadqiq qilish masalalari.
4. Dunyo tuproq kartografiyasining rivojlanish tarixi.
5. Tog' tuproqining shakllanishida relyefning roli.

6. Qayirlarda tuproq hosil bo'lish sharoiti.
7. O'zbekistonning Yer fondi.
8. Tuproqlar geografiyasida tadqiqot metodlari.
9. Tuproq geografik rayonlashtirish tajribalari.
10. Amerika nomenklaturasi.
11. Tuproq havosi va atmosfera havosi tarkibi.
12. Tuproqning unumdorlik darajasiga ko'rsatiladigan ijobiy va salbiy ta'sirlar tahlili.
13. O'zbekistonda tuproqlar bonitirovkasi tarixi.
14. Tuproqning kimyoviy tarkibini o'rganishning ahamiyati.
15. Gumus hosil bo'lishi haqidagi konsepsiyalar.

3. **V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- tuproq geografik obyekt ekanligi, umumiy va xususiy tuproqlar geografiyasi, tuproqlarni o'rganish tarixi, tuproqning minerologik va kimyoviy tarkibi, tuproq eritmasi, tuproq havosi va unumdorligi haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- tuproqlarning insoniyat uchun ahamiyati, tuproqlar rekultivatsiyasi, ikkilamchi sho'rlanishga uchragan erlarni aniqlash va yaxshilash masalalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
- talaba tuproqlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish va chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha xulosalar chiqara olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

4. **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- interfaol metodlar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish vajoriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

6.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduraxmanov T. Tuproqshunoslikka kirish. T., "MUMTOZ SO'Z", 2018. – 140 b.
2. Ibragimova R.. Tuproqlar geografiyasi. Darslik, Toshkent, 2023.
3. Добровольский Г.В. География почв с основами почвоведения. М.: ВЛАДОС., 2001. – 384с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abdullayev S.A., Nomozov X.Q. Tuproq meliorasiyasi va gidrologiyasi. T.: Fan vatexnologiya, 2018.
2. Nomozov X.Q., Turdimetov Sh. M. O'zbekiston turoqlari va ularning evolutsiyasi. T.: Fan vatexnologiya, 2016.
3. Абдрахмонов Т., Жаббаров З.А. Тупрокларни кимёвий ифлосланиши ва муҳофаза қилиш тадбирлари. Тошкент. "Университет" 2007. 115 б.
4. Баходиров М.Тупрокшунослик. Т. 1975.
5. Геннадиев А.Н., Глазовская М.А. География почв с основани почвоведения. М. Высшая школа, 2005.
6. Глазовская М.А. Почвы мира. М. 1972.
7. Добровольский Г.В. География почв. - М., МГУ, 1984.
8. Мирзажонов К. ва б. Тупрок муҳофазаси. - Т.: Фан ва технология, 2004.
9. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: "Ўзбекистон", 2017. – 488 б.
10. Турсунов Л. Табиий ва техноген бузилган тупроклар генезиси, географияси ва рекультивацияси. Университет, Тошкент, 2008.

Axborot manbalari

1. <https://isric.org/>
2. <https://websoilsurvey.nrcs.usda.gov/app/>
3. <https://www.fao.org/soils-portal/data-hub/soil-maps-and-databases/faunesco-soil-map-of-the-world/en/>
4. <https://soilgrids.org/>

7. Mazkur o'quv dastur M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti va South Carolina universitetlarining Syllabuslarini tahlil qilish asosida, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

8. Fan/modul uchun ma'sular:

A.A.Kutlimuratov - UrDU, "Geografiya" kafedrası katta o'qituvchisi
I.B.Gulimmatov – UrDU "Geografiya" kafedrası dotsenti v.b. g.f.f.d. (PhD)

9. Taqrizchilar:

Dusanova Sh. - UrDU, "Geografiya" kafedrası o'qituvchisi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi.

Tajiyev Q. – UrDPI, "Tarix va geografiya" kafedrası mudiri, (PhD).

Mazkur fan dasturi QS World University Rankings <https://www.topuniversities.com/rejtingida-Top-300-talikka-kirgan-oliy-ta'lim-tashkilotlarining-ta'lim-dasturlarini-tahlil-qilish> asosida ishlab chiqilgan

№	OTM nomi	QS reytingi	Top-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimchalar	Mazkur dasturdagi mavzu	Havolalar
1	South Carolina University (AQSH)	272	1-Soil and regolith; Soil components; Soil properties 1 (Ch 12; Sup) 2- Soil properties 2; Soil chemistry; Profiles; Pedogenic regimes (Ch 12; Sup)	4-mavzu. Tuproqlar klassifikatsiyasi 5-mavzu. Tuproq morfologiyasi 6-mavzu. Tuproqning mineralogik va kimyoviy tarkibi. Tuproqdagi organik moddalar	https://sc.edu/about/offices_and_divisions/provost/academicpriorities/undergradstudies/carolinacore/courses/carolinacoresyllabi/geog201.pdf
2	Moskva davlat universiteti (Rossiya)	105	Почва как объект картографирования	13-mavzu. Tuproq qoplami raqamli kartaga olish obyekti sifatida	https://soil.msu.ru/attachments/article/3008/%D0%9A%D0%B0%D1%80%D1%82%D0%BE%D0%B3%D1%80%D0%B0%D1%84%D0%B8%D1%8F%20%D0%BF%D0%BE%D1%87%D0%B2.pdf